


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

Joriy davrda 8 558,2 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 534,9 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 6,2 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 112,8 foiz o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 023,3 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 93,8 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 106,4 foiz o‘zlashtirildi.







Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (2022- yil yanvar- iyun)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	hajmga nisbatan, % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	8 558	106,8	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	535	112,8	6,2
Budjet mablag'idan	316	117,0	3,7
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	207	193,8	2,4
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	12	51,2	0,1
Markazlashmagan investitsiyalar:	8 023	106,4	93,8
Korxonalar o'z mablag'lari	3 292	246,7	38,5
aholi mablag'lari	676	108,7	7,9
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	3 977	76,5	46,5
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	78	20,3	0,9


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2022- yil yanvar- iyun)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2022- yil yanvar- iyun)



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkich korxonalar o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,7-martaga oshdi.




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
➤ Viloyat bo'yicha	8 558,2	106,8	4 183,3	78,8
shaharlar:				
➤ Navoiy	2 367,8	140,4	847,7	179,1
➤ Zarafshon	844,4	105,1	347,6	43,0
➤ G'ozg'on	67,4	155,5	33,2	120,1
➤ Karmana	1 280,0	113,4	255,7	31,0
➤ Konimex	152,2	14,5	4,9	0,5
➤ Qiziltepa	321,3	132,7	124,0	228,4
➤ Navbahor	199,9	88,1	8,8	16,2
➤ Nurota	676,7	341,4	481,9	6179,2
➤ Tomdi	2 098,7	96,8	2 034,7	96,5
➤ Uchquduq	118,9	178,1	25,5	192,0
➤ Xatirchi	430,9	108,9	19,3	72,0

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da







Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd. so'm	8 558,2	1 244,6	7 313,6
<i>shu jumladan:</i>			
umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	14,5	85,5
mashina, uskunarlar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	4 843,4	353,8	4 489,6
qurilish-montaj ishlari	3 224,3	743,8	2 480,5
boshqa harajatlar	490,5	147,0	343,5

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo'yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari ulushi- 56,6 foiz, qurilish-montaj ishlari- 37,7 foiz hamda boshqa harajatlar- 5,7 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 437,9 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 5,1 foiz), tog'-kon sanoatida 103,2 mlrd. so'm (1,2 foiz), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 298,5 mlrd. so'm (73,6 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 242,5 mlrd. so'm (2,8 foiz), qurilish sohasida 61,6 mlrd. so'm (0,7 foiz), ulgurji va chakana savdo sohasida 61,8 mlrd. so'm (0,7 foiz), tashish va saqlash 386,5 mlrd. so'm (4,5 foiz) hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 1 027,8 mlrd. so'm (12,0 foiz) ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan % da)



2022- yil yanvar- iyun oylarida umumiy maydoni 304,3 ming kv.m. (2021- yilning mos davriga nisbatan 110,5 %) bo'lgan 1025 xonadonga ega bo'lgan turar - joylar, ulardan 227,1 ming kv.m. (117,9 %) bo'lgan 762 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.



Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari
(2022- yil yanvar- iyun oylari)


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida jami 2 679,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,1 % ni tashkil etdi.






Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2022- yil yanvar- iyun oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 530,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 100,7 % ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da





Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2021- yil yanvar-iyun
- 2022- yil yanvar-iyun

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajarigan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,3 foizi to'g'ri kelib, 2021-yil yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,0 foiz punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 110,9 foiz ni tashkil etgan holda 1 482,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 241,3 mlrd. so'm yoki 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 45,1 foiz qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2 438,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 125,7 foizni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (2022- yil yanvar- iyun oylari)


	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulk*		Davlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
Jami	2 679,9	2 438,6	100,0	241,3	100,0
Navoiy sh.	655,0	542,0	22,2	113,0	46,8
Zarafshon sh.	414,5	308,8	12,7	105,7	43,8
G'azg'on sh.	16,5	16,5	0,7	-	
Karmana t.	273,3	270,5	11,1	2,8	0,8
Konimex t.	34,6	33,3	1,4	1,3	0,4
Qiziltepa t.	507,1	505,3	20,7	1,8	0,5
Navbahor t.	225,7	223,2	9,2	2,5	0,7
Nurota t.	221,8	219,8	9,0	2,0	0,6
Tomdi t.	55,2	53,8	2,2	1,4	0,4
Uchquduq t.	58,3	57,2	2,3	1,1	0,3
Xatirchi t.	217,9	208,2	8,5	9,7	2,9

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2021- yil, yanvar-iyun



2022- yil, yanvar-iyun



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 16,3 foiz tashkil etib, 2021-yil yanvar- iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 16,0 foiz punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 15,4 foiz punktga ko'payib, 58,8 foizni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2021-yil yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan 0,6 foiz punktga ko'payib, 24,9 foizni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 26,4 foizni tashkil etdi va 2021- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 6,6 foiz punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 73,6 foiz (6,6 foiz punktga kamaydi).



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,3 foiz punktga kamaydi va 28,9 foizni tashkil etdi. Qolgan 71,1 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,3 foiz punktga ko‘paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari (2022- yil yanvar-iyun oylarida)

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)



Eng kam hajm (mlrd. so'm)

